“O‘zmilliybank” AJ Komplayens tavakkalchiligi bloki Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi hamda Muborak BXO xodimlari tomonidan BXO mijozlari bilan korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan o‘tkazilgan uchrashuv

2026 yil 23 aprel **Muborak tumani**

O`zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, “Manfaatlar to`qnashuvi to`g`risida”gi Qonuni hamda“O‘zmilliybank” AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati va Korporativ etika kodeksi talablari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (29.06.2020y PF-6013). «Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (06.06.2021y PQ-5177) Qarori, “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni ijrosini ta’minlash va “O‘zmilliybank” AJ tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha, aholi va mijozlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targibot tadbirlarining samaradorligini oshirish maqsadida 2026 yil 23 aprelda “O‘zmilliybank” AJ Muborak BXO mudiri D.Qurbonov va Komplayens tavakkalchiligi bloki Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo`limi bosh mutaxassisi I.Eshmurodovlar tomonidan BXOga kelgan mijozlar bilan “Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz” mavzusida uchrashuv utkazildi.

Uchrashuv ishtirokchilariga “O‘zmilliybank” AJ Qashqadaryo viloyati Bosh boshqarmasi Muborak BXO tizimida korrupsiyani oldini olish yunalishida amalga oshirilgan ishlar haqida axborot berib utildi.

“O‘zmilliybank” AJ Qashqadaryo viloyati Bosh boshqarmasi, uning tasarrufidagi BXM va BXOlarida o`rnatilgan monitorlar orqali korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha videoroliklar nomoyishi yulga quyilganligi, aksilkorrupsiya burchaklarida xuquqiy targ’ibot materiallari (ma’ruza matnlari, slaydlar, infografikalar) joylashtirilganligi hamda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha bilim va kunikmalari yuzasidan ma`lumotlar aytib utildi.

Bank tizimida korrupsiyaga oid xuquqbuzarliklar haqida tezkor xabar berish imkoni beruvchi aloqa kanallari, maxsus axborot portallari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar, bankning veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo’limi joriy etilganligi, korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari mavjudligi ma`lum qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chiqarilgan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan qaror va farmoyishlarining qisqacha mazmun mohiyati haqida to‘xtalib o‘tildi. Shu bilan birga ushbu me’yoriy-hujjatlar asosida tayyorlangan “O‘zmilliybank” AJning ichki buyruq va talabnomalarida Bankning barcha tarkibiy tuzilmalariga qo‘yilgan vazifalar va ularning yechimlariga tinglovchilarning e’tiborini qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi №PF-5729- sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni talablaridan kelib chiqqan xolda “O‘zmilliybank” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati” ishlab chiqilganligi, ushbu Siyosat bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari xamda bu boradagi xodimlarning vazifalari aniq aks ettirilganligi to‘g‘risida gapirib o‘tildi.

Bankning veb sahifasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘limi ishga tushirilganligi va ushbu bo‘limga barcha bank xodimlari, mijozlari va fuqarolari korrupsiyaviy huquqbuzarliklar xaqida xabar va takliflarini qoldirishlari mumkinligi to‘g‘risida ta’kidlab o‘tildi.

Shuningdek, kredit ajratilishida inson omilini minimallashtarish orqali suiste'molchilik va ta'magirlik qilish holatlarining oldini olish borasida, jismoniy shaxslarni kreditlashda "kredit konveyeri", yuridik shaxslarni kreditlashda "anderayting" tizimlari joriy qilinishi hamda kredit yo'nalishida to'liq nazorat olib borilishi yuzasidan zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilganligi va filiallar mas'ul xodimlarini korrupsiya va firibgarlik xatarlari yuzaga kelishi omillari o'rganilib, ularni baholash orqali korrupsiya va firibgarlik xatari yuqori lavozimlar aniqlanib, xatarlarni boshqarish va minimallashtirish bo'yicha choralar belgilab olinganligi ma'lum qilindi.

"O'zmilliybank" AJ Qashqadaryo viloyati Bosh boshqarmasi, uning BXM va BXOlarida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dolzarbligi va bu borada xodimlarning javobgarligi, hozirgi kunda bu kabi illatga qarshi kurash, uni oldini olishga qaratilgan kompleks tadbirlar olib borayotganligi, bu davlat ichki siyosatining uzviy bir bo'lagi ekanligi ta'kidlandi.

Bank tizimida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan bir qator targ'ot-tashviqot ishlari olib borilayotganligi, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab vas hart sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisabatan murosasiz unosabatni shakllantirish choralarini ko'rish uchun ma'sul hisoblanadi.

Qatnashchilar muhokamaga qo'yilgan mavzuga ijobiy munosabatlarini bildirib, bu boradagi siyosat talablariga ko'ra bank mutasaddilarining faoliyatini ma'qullab, korrupsiya jamiyatdagi eng yomon illat ekanligi, uni oldini olish va bu kabi ofatga qarshi kurashish barchaning vazifasi ekanligini ta'kidladi.

Yig'ilish so'nggida, mijozlar tomonidan berilgan savollarga batafsil javob berildi hamda mijozlarga yana bir bor korrupsiyaga birgalikda va hamjihatlikda kurashish lozimligi ta'kidlandi.

18-то

Muborak BXO mudiri **D.Qurbonov**

Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi **I.Eshmurodov**

mijozlar:

Қурбонов Гулмурод

Abdusamadova Zukra

Бахромова Шодиёна

Абдуллаев Одилжон

Тигаева Оддия

Саъдиев Улуғбек

Алиев Аброржон

Надиев Рахим

Норова Зебо

xodimlar

Z. Samandarova

T. Nurmatov

V. Aleksandrov

S. Urinov

M. Sattorov

D. Alimuxamedova

M. Kasimova

WELCOME
HONOR X9c Smart

Eskrou hisobvarag'i

NBU
O'ZMILLIYBANK
HONOR X9c Smart